
Rasmiy munosabat

Kun.uz saytida “Qo‘l uchida qilingan ish. Rishtonda boshlangan ta‘mirlash chala tashlab ketildi nomli maqola e‘lon qilinib, unda Farg‘ona viloyati Rishton tumani Zohidon qishlog‘iga 2021 yil yanvar oyidan boshlab 15 kmlik masofada “kanalizatsiya” tortish ishlari boshlangan. Qurilish tashkilotining mas‘uliyatsizligi sabab asfalt sathidan oqova suv tarmog‘ining “kolodets”i yuqorida joylashtirib ketilishi ortidan ko‘ngilsiz voqealar sodir bo‘lmoqda. Avtomobil ballonlarining yorilish oddiy holga aylangan deb iddoa qilingan. Ma‘lum bo‘lishicha, tumanning Avazboy, Zohidon, Amirobod qishloqlariga kanalizatsiya tortish ishlari “Farg‘ona me‘mor qurilish” MChJ tomonidan olib borilayotgan ekan. Qurilish tashkiloti bosh muhandisi Mo‘minjon Mirzakarimov va‘da qilishicha, tez fursat ichida haydovchilarga noqulaylik tug‘dirayotgan muammo bartaraf qilinadi. Avtomobil balloni yorilgan haydovchilarga esa zarar to‘liq qoplab beriladi. “Rishton tumanining markaziy ko‘chalariga oqova suv tarmog‘i tortish hamda tozalov inshootini qurish uchun tenderda qatnashib g‘olib bo‘lganmiz. 2021 yilda 15 km tarmoq tortish uchun qurilish-montaj ishlari bajarildi. Hozirgi kunda tumanning Amirobod qishlog‘ida tozalov inshooti qurilishi Turkiya kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Yil yakuniga qadar ob‘ekt to‘liq foydalanishga topshiriladi. Tarmoq tortish ishlarida ayrim ko‘chalarda aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar bugungi kundan bartaraf qilinishi boshlandi. Mavjud bo‘lgan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida bartaraf qilishga va‘da beramiz. Haydovchilarning yorilgan balloni uchun keltirilgan zararni to‘liq qoplab beramiz”, - deydi “Farg‘ona me‘mor qurilish” MChJ bosh muhandisi Mo‘minjon Mirzakarimov. Ayni damda qatnov yo‘lidan ancha balandda o‘rnatib ketilgan kolodetslarni pastga tushirish, yo‘lning cho‘kib qolgan qismini qayta asfaltlash ishlari boshlab yuborildi.

2022-09-20 15:35:04